

MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Saidova Shoira O'ralboyevna

Samarqand shahar 39-umumta'lim maktab 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslarida faolligini oshirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish uchun xizmat qiladigan usullar haqida fikrlar bayon etilgan bo'lib, qiziqarli boshqotirmalar va krassvordlarni qo'llanish tartibi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *matematika, metod, faollik, dars, boshqotirma, krassvord.*

O'qituvchi o'quvchilar bilan yangi mavzuni o'rganishga kirishar ekan, har doim savol tug'iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik materiallardan foydalanish kerak, o'quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkin? Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni to'g'ri tanlash haqiqiy ijodiy maqsadga aylanishi lozim.

Umumiy holda metodning tanlanishi ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faoliyat turlari o'zgarib, o'zaro almashinib turadi. Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o'qitish metodlari ham o'zaro chog'ishtiriladi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Har bir kishining kundalik hayoti turli voqea hodisalarga juda boydir. Shu bilan birga har birimiz shu jarayonda ana shu voqea hodisalar orasida turli darajada mantiqiy fikr yuritamiz, o'ylaymiz va ular to'g'risida boshqalar bilan fikr almashamiz.

“Mantiq” so'zi grekcha – logike so'zidan olingan bo'lib so'z va fikr, aql ma'nosini anglatadi. Fikr – mulohazalarni asoslash mantiqiy to'g'ri fikr yuritish demakdir. Asoslash uchun esa yetarli dalillar bo'lishi lozim.

Fikrlovchi birinchidan borliqni kuzatish, his qilish, idrok etish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur ya'ni ruhiy sog'lom bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan voqea hodisalar mohiyatini mazmunini tushunish salohiyatini, tarixiy, geografik, fikriy ma'lumotlarga ega bo'lmoq, bunday ma'lumotlar nafaqat makonda, balki bir zumlik zamonda ham cheksizligidan ularning eng zarurlarinigina ajratib olib o'quvchilarni fikrlashga o'rgatmoq lozim.


Fikrlashni aniq obyektlarini idrok qilishdan boshlash lozim. Fikrlashga chorlovchi topshiriq yoki ma'lumot mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo'lishi kerak.

Bahsli muommoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lb qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bahsli muommoli vaziyat o'quvchilarni aqliy kuchini zo'riqtiradi, vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Odam muommo bilan yuzma-yuz kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajaradi, saviyasiga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi. Mantiqiy fikrlashning asosiy shakli, xulosa chiqarishdan keng foydalanamiz. Bilimlarimizning ko'p qismi ham xulosa chiqarish shaklida tuzilgan, chunki har qanday yangi bilim xulosa chiqarishning natijasidir. Xulosa chiqarish deganda bir yoki undan ortiq hukmdan yangi hukm hosil qiladigan tafakkur formasiga aytiladi.


Quyida matematika darslarida o'quvchilarni faolligini oshirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish uchun xizmat qiladigan usullar haqida bayon qilinadi.

Qiziqarli boshqotirmalar.


1. Olti dona gugurt cho'pining o'rnini shunday almashtiring-ki, natijada uycha paydo bo'lsin.




2.



3.




4. Sonlarning o'rnini shunday almashtiring-ki, natijada har bir to'g'ri chiziqdagi sonlarning yig'indisi 12 ga teng bo'lsin.



5. 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni "charxpalak" doirachalariga shunday joylashtiring-ki, har bir to'g'ri chiziq bo'ylab joylashgan 3 ta son yig'indisi 15 ga teng bo'lsin.

6. 12 ta shashka donasidan uch qator qilib shunday joylashtiring-ki, har bir qatorda 5 tadan shashka donasi bo'lsin.



Krassvord.

Karssvordni to'g'ri bajarsangiz matematik olimning nomi kelib chiqadi.

1. Tenglamalarda qatnashadigan harf.
2. Ikkita uchning yig'indisi.
3. Son.
4. Matematik atama.
5. Nol raqami ingliz tilida.
6. Eng kichik 4 xonali son.
7. Eng kichik juft son.
8. o'lchab bir kes.

1	X
---	---

2	O	L	T	I	
3	R	A	Q	A	
4	A	M	A	L	
5	Z	E	R	O	
6	M	I	N	G	
7	I	K	K	I	
8	Y	E	T	T	

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishiga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafasatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatishdir. Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qo'llash hamda ta'limni ikkinchi bosqichidan o'qishni davom ettirish uchun matematika tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qilar ekan, matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy tafakkurini rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6 -apreldagi 187-son qarori. "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim ining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida".

2. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T., 2001-yil

3. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2005-yil.

www.kutubxona.uz.